

O'ZBEKISTONDA BIRINCHI UNIVERSITET TARIXI, XUSUSIY VA NODAVLAT UNIVERSITETLAR HAQIDA

Xolboyeva Mohinur

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand
Filiali Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi pri-s-122
guruh talabasi*

O'zbekistonda zamonaviy ma'nodagi birinchi oliy o'quv yurti Turkiston ASSR Xalq komissarlar kengashi buyrugi bilan 1918 yilning 16-martida tashkil etilgan Turkiston xalq universitetidir. Ammo bu universitet faqar rus tilida ma'lumot olgan kishilarni o'qitishga yo'naltirilgan bo'lib, o'lkaning haqiqiy egalariga oliy ma'lumot berish ko'zda tutilmagan. Millatning fikriy rivojida zamonaviy universitetlarning g'oyat ulkan o'rin tutishini anglagan Munavvarqori yetakchiligidagi ziyolilar tashabbusi va saxovatli kishilarning ko'magi bilan 1918-yil 12-mayda Xalq dorilfununining tashkil etilishi ulkan voqeaga aylangan. Xalq dorilfununi tashkil etilganda, uning qoshida adabiyot-falsafa, ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy matematik, qishloq xo'jaligi, texnika singari 5 fakultet faoliyat ko'rsatgan. O'lkada o'rta ma'lumotli yoshlar kam bo'lgani uchun ham Xalq dorilfununi qoshida o'qishga kirishga tayyorlaydigan maktab va kurslar tashkil etilgan. 1919-yildan boshlab shu maqsadda ishchilar fakultet (rab-fak)lari yuzaga keldi.

RSFSR Xalq komissarlari kengashi 1920-yil 7-sentabrda 2 yildan oshiqroq vaqtdan buyon ishla-yotgan dorilfununni "tashkil etish" va uni davlat universitetiga aylantirish haqida dekret chiqardi. Bu ish oliy o'quv yur-tida mahalliy mutaxassislarning kamroq bo'lishi va oliy ta'limning tashkil etilishida milliy xususiyatlar hisobga olinishiga imkon bermaslik uchun qilingan edi. Xalq dorilfununi 1920-yildan Turkiston davlat universiteti, 1923-yildan O'rta Osiyo davlat universiteti (SAGU), 1960-yildan Toshkent davlat universiteti (ToshDU), 2001-yildan O'zbekiston milliy universiteti (O'zbekiston milliy universiteti) tarzida atalgan.

1918-yil 8-noyabrda tashkil etilgan Turkiston sharqshunoslik instituti mamlakatimizdagi ikkinchi oliy o'quv yurtidir (bu institut 1924-yilda O'rta Osiyo davlat universitetining fakultetiga aylantirilgan). 1919-yilning 15 avgustda tashkil etilgan Turkiston o'lkasi oliy tibbiyot maktabi O'zbekistondagi uchinchi oliy o'quv yurti bo'ldi (maktab 1919-yil ning 27-noyabrda O'rta Osiyo davlat universitetining tibbiyot fakultetiga aylantirilgan). 1927-yil Samarqandda ochilgan O'zbekiston Oliy ped. instituti (1930-yildan O'zbekiston Ped. akademiyasi) mamlakatimizdagi to'rtinchi oliy o'quv yurti hisoblanadi. 1933-yil shu oliy maktab negizida O'zbekiston davlat universiteti (1960-yildan Alisher Navoiy nomidagi Samarqand universiteti) tashkil bo'ldi.

O'zbekiston tom ma'noda yangi davrga qadam qo'ymoqda. Yangicha qarashlar, yangi g'oyalar, innovatsiyalarga keng yo'l ochilayapti. Ko'plab sohalar isloh qilindi, o'zgarishlar jarayoni davom etmoqda. Bu esa yana bir tabiiy ehtiyojni kuchaytiradi. U ham bo'lsa barcha sohalar uchun malakali, raqobatbardosh, zamonaviy bilim va qarashlarga ega kadrlarni tayyorlab berishdan iborat.

Iqtisodiyot qancha rivojlansa, kadrlarga talab shuncha ortaveradi. Biroq bugungi milliy oliy ta'lim muassasalari iqtisodiyotni kerakli miqdorda, talab va ehtiyojlarga mos kadrlar bilan ta'minlay oladimi? Universitetlarning moddiy-texnik bazasi, o'qituvchilar tarkibi, o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalar yuqori malakali kadrlarni yetkazib berishga yaraydimi?

Tizimda chuqur ildiz otgan korrupsiya, eskirgan va zamon talablariga javob bermaydigan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, talabalar, tadqiqotchilar sonini cheklab kelayotgan kvota siyosati, sohada eskicha fikrlaydigan, o'zgarishlarni tasavvur ham qila olmaydigan mutasaddilarning mavjudligi rivojlanish yo'lidagi asosiy to'siqlardan bo'lib qolmayaptimi?

Ayrimlar O'zbekistonda ham xususiy universitetlar ochilishi kerak degan fikrga Harvard misolida dalil keltirilganiga e'tiroz bildirishi mumkin. Chunki Harvard tashkil etilganiga qariyb 4 asr bo'lgan, rivojlangan davlatda joylashgan va undagi sharoitni O'zbekistondagi sharoit bilan taqqoslab bo'lmaydi deb iddao qilishi mumkin. Qaysidir ma'noda bu e'tirozlarda jon bor ham. Ammo yuqorida ta'kidlaganimizdek, O'zbekiston yangi davrga qadam qo'ydi. Bizning muammolarimizni chetdan birov kelib hal qilib bermaydi. Hammasiga erishish uchun o'z imkoniyatimiz, o'z kuch-quvvatlarimizni ishga solishimiz kerak.

Xususiy Universitetlar hozirda dolzarb mavzuga aylangani uchun Qarshi xalqaro universiteti rektori, yuridik fanlari doktori Axtam Yakubovning intervyusiga e'tiborimizni qaratdik. Axtam Yakubov mamlakatimizda mehnat bozori va oliy ta'lim o'rtasida integratsiya uzilgani xususida to'xtalar ekan, 3-4 yildan keyin oliy ta'lim bozorida juda katta tushish paydo bo'lishi va jamiyatda diplomli ishsizlar ko'payishi xususida to'xtalib o'tdi. Mutaxassis ushbu fikrlarini asoslar ekan: "Oliy ta'limda xususiy sektorning rivojlanishi natijasida haqiqiy talantlarni ijtimoiy adolatni ta'minlagan holda saralab olish boshlanadi", – deb aytadi.

Shuningdek, intervyuda "diplomli mutaxassis" masalasi, xususiy ta'limga, xususiy sektorga ishonchni oshirish, shaxs rivojlanishida xususiy sektorning o'rni, shaxsning diplomiga qarab emas, uning malakasiga qarab baho berish tendensiyasini shakllantirish, oliy ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi integratsiyani tiklash, oliy ta'limda nazariya va amaliyotni rivojlantirish, ish beruvchilar va amaliyotchilarni oliy ta'lim muassasalariga jalb etish, universitetlarda tadqiqot institutlari, turli amaliyot markazlari, WorkShop'larni tashkil etish masalalari haqida ham so'z yuritiladi.

Nodavlat Universitetlar dolzarb mavzuligi sabab davlat universitetlarida o'qiyotgan talabalardan xar xil so'rovnomalar o'tqizlganda ba'zi talabalar xususiy oliygohlarga ishonch yo'q, degan fikr bildirdi. "Ko'p xususiy universitetlar yopilib ketyapti, litsenziyasi olib qo'yilyapti. Uyoqqa o'qishga topshirib, pul to'lab qo'yganingizdan keyin, ishga kirishda diplom o'tmasligi mumkin. Davlat universitetida ta'lim sifati unchalik yaxshi bo'lmasa ham, uni bitirgandan keyin ish topish muammo bo'lmaydi", deydi O'zMU talabasi.

Shunga qaramay, so'rovnomada qatnashganlarning deyarli barchasi nodavlat OTMlarning O'zbekistonda ochilishini foydali deb hisoblashini aytdi. Yurtdoshlarimizning fikricha, davlat universitetlari barcha yoshlarni o'qishga qamrab olmaydi, xususiy oliygohlar esa o'qish istagida bo'lganlarga shunday imkoniyatni beradi. Bundan tashqari,

nodavlat universitetlar sifatli ta'lim uchun kurashmoqda va shu tufayli davlat universitetlari, umuman olganda, ta'lim beruvchi tashkilotlar o'rtasida raqobat kuchaymoqda.

Xususi universitetlar haqida gap ketar ekan AQSHdagi mashhur xususi universitet Harvardni misol qilmoqchimiz. Harvard universiteti AQShning Massachusetts shtati Boston shahar aglomeratsiyasi tarkibidagi Kembrij shaharchasida joylashgan. 1636 yilda asos solingan universitetda 6700 nafar bakalavr va 14500 nafar magistr bosqichi talabalari tahsil oladi. Ushbu universitetda tahsil olgan, o'qituvchilik qilgan yoki ishlaganlarning 75 nafari Nobel mukofoti bilan taqdirlangan. AQShning sakkizta prezidenti, jumladan Barak Obama, shuningdek Devid Rokfeller, Bill Geyts, Mark Sukerberg kabi milliarderlar Harvardda tahsil olgan. Universitet o'z bitiruvchilari orasidan yetishib chiqqan milliarderlari soni bo'yicha mamlakatda birinchi o'rinda turadi. Harvard endowment (maqsadli kapital) bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi — 36,4 mlrd dollar (2014 yilgi ma'lumot).

Universitetda bir yil o'qish chet el grajdanlari uchun o'rtacha 60 ming dollarga tushadi. Uning 40 ming dollari o'qish puli bo'lsa, 20 ming dollari yashash va boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan Harvard universitetining asosiy talabalari chet elliklardir.

Harvard «QS World University Rankings» dunyo universitetlari reytingida oltita ko'rsatkich: tadqiqot faoliyati, o'qitish, ish beruvchilarning fikrlari va karera qilish salohiyati, chet ellik talabalar va o'qituvchilar soni bo'yicha dunyoda kuchli uchlikdan o'rin olgan. Xullas, xususi universitetlardagi ta'lim sifati haqida gapirganda, hech qanday shubhaga o'rin yo'q: barchasi zamon talablari, ish beruvchilarning xohishlari darajasida. Buni ish beruvchilar o'rtasida Harvard universitetining nufuzi 100 balli tizimda 99,9 foizga baholanishi ham ko'rsatib turibdi.

Balki O'zbekistonda ham xususi universitetlar ochilishi kerak degan fikrimizga Harvard misolida dalil keltirilganimizga e'tiroz bildirishingiz mumkin. Chunki Harvard tashkil etilganiga qariyb 4 asr bo'lgan, rivojlangan davlatda joylashgan va undagi sharoitni O'zbekistondagi sharoit bilan taqqoslab bo'lmaydi deb iddao qilishingiz ham mumkin. Qaysidir ma'noda bu e'tirozlarda jon bor ham. Ammo yuqorida ta'kidlaganimizdek, O'zbekiston yangi davrga qadam qo'ydi. Bizning muammolarimizni chetdan biron kelib hal qilib bermaydi. Hammasiga erishish uchun o'z imkoniyatimiz, o'z kuch-quvvatlarimizni ishga solishimiz kerak.

Xususi universitetlar nafaqat milliy kadrlarni yetishtirish, balki turli sohalarda tadqiqot olib borish, izlanishlar natijalarini daromad keltiruvchi tarmoqlarga aylantirish, minglab ish o'rinlarini yaratish degani hamdir. Eng e'tiborlisi, xususi universitetlar faoliyati uchun davlat budjetidan mablag' ajratish shart emas. Barchasi xususi tadbirkorlar, muassislar zimmasida bo'ladi.